

MAKTABGACHA YOSHIDAGI TEXNOKRATIK BOLALARDA BADIY SO‘Z QUDRATI

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna

FarDU dotsenti

Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi

FarDU magistri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshidagi texnokratik bolalarning badiiy so‘z qudratini his etib, uncha katta bo‘lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she‘rlarini tez va osongina eslab qolishi, badiiy so‘zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab uyg‘otish bolalar nutqini ravon bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: texnokratik bolalar, badiiy adabiyot, his-tuyg‘u.

Maktabgacha yoshidagi texnokratik bolalar bilan ishlashda badiiy adabiyot katta o‘rin egallaydi. Bolalar she‘r, xalq ertaklari, hikoyalar eshitishni yaxshi ko‘radilar. Bolalar adabiyoti o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining xilma-xilligi, tilning yorqinligi, she‘riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda badiiy adabiyot bolalar nutqini rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bolalar badiiy so‘z qudratini his etib, uncha katta bo‘lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she‘rlarini tez va osongina eslab qoladilar. Badiiy so‘zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab uyg‘otish bolalar nutqini ravon bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Badiiy adabiyot insonga ruhiy ozuqa, hayotiy tayanchdir. Jamiyatni doimiy harakatga keltirib turadigan kuch - bu badiiy adabiyot. Ta‘kidlash joizki, badiiy adabiyot asosida voyaga yetib kelayotgan yosh avlodda milliy qadriyatlarni, ustuvor demokratik qoida va tushunchalarni shakllantirish, rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bolalar badiiy adabiyoti maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishning asosiy omili hisoblanadi. Badiiy adabiyot zahirida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, har bir tarbiyalanuvchida nutq, muloqot madaniyatini shakllantirish chuqur o‘rin egallagan. Badiiy adabiyot maktabgacha yoshdagi bolalarga ravon nutq madaniyatini shakllantirishda ham, ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy adabiyot hayotning barcha sohalarini aks ettirishi bilan boshqa san‘at turlaridan ajralib turadi. Jumladan bolalar badiiy adabiyoti har bir tarbiyalanuvchi hissiyotiga, qalbiga, e‘tiqodiga, ma‘naviyatiga, shaxs bo‘lib shakllanishiga bir yo‘la

ta'sir etishi o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. O'quvchilar og'zaki nutqini o'stirishning asosiy manbalaridan biri badiiy asardir. Badiiy asar o'quvchining aqlini, bilim, malaka, tarbiya va o'z hissiyotini tarbiyalash bilan birga, uning lug'at boyligini, estetik nutq madaniyatini o'stirish vositasi hamdir. Badiiy asar tarbiyalanuvchilar nutqi uchun muhim manba sanaladi, shuning uchun badiiy asarlar mazmun-mohiyatini puxta o'zlashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim tarbiya tizimida badiiy adabiyotni bolalarga chuqur o'rganishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalar nutqini shakllantirish borasidagi pedagogik faoliyatni tashkil etishda quyidagi berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bolalar badiiy adabiyotni o'rganish jarayonida nutqni rivojlantirishga doir bilimlarni o'zlashtirishi natijasida nutq his-tuyg'ulari shakllanadi. O'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'qib berilayotgan asarlarda yuz berayotgan voqealar yoki ulardagi yaxshi-yomon fazilatlarga nisbatan bolada turli xil shaklda tasavvurlar rivojlanadi. Maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchilarining idrok etish, xotiralash, hayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilibgina qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi turli narsalarga qanday bo'lmasin, munosabat bildirish va ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg'u shakllanadi. Bunday ichki shaxsiy munosabatlar bolaning qalbidan joy olgan badiiy asarlarda ta'sirlanish natijasida ro'y beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Yuldasheva D.M. Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. Solid State Technology. Volume: 63 Issue:6 Publication Year:2020. 14221-14225
2. Yuldasheva D.M. Anthropocentric Approach To Children's Speech Study. Section 2: Linguistic Theory, Applied Linguistics. Collection Of Materials Of The International Online Conference. www.research-support-center.com 2020.92-95
3. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speech Development Of Preschool Children. Eurasian International Journal Of Multidisciplinary Research(Ijmr). Impact Factor: 7.6.11.November.
4. Юлдашева Д.М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. cyberleninka.ru
5. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
6. D Yuldasheva. Anthropocentric approach to children's speech study. Конференции.
7. YD Maxamadaliyeva, M Matmusaeva. On Linguofolkloristic Units. International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171

8. YD Maxamadaliyeva, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
9. YD Maxamadaliyeva. Use Of Presidential Names In Uzbek Children's Texts. *gospodarka i innowacje*. 22.
10. D Yuldasheva, S Umarova . Maktabgacha Ta'lim Tizimida O'Yinlar Texnologiyasi. *Scientific progress* 3 (2), 746-751
11. ДМ Юлдашева. Синтактик такрорларнинг бадиий-эстетик имкониятлари. *Международный журнал/ Искусство слова*.